



XIII – XIV ASRLARDA TURKIY LUG‘ATCHILIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O‘rmonova O‘g‘iloy Olimjon qizi

Chirchiq davlat universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIII – XIV asrlarda turkiy lug‘atchilikning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu davrda yaratilgan asarlarning tahlili ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Leksikografiya, dialektal, turkiy til, Abu Hayyon, „Kitob al idrok“, „At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya“.

Lug‘atchilik tarixi ya’ni, dunyo lug‘atchiligi tarixi qadim mingyilliklarga borib taqaladi. Jumladan, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi ham bir necha ming yillar avval shakllana boshlagan. Tilning lug‘at boyligi zamon va makon sathida doimiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi, ba’zi so‘zlar esa eskirib is’temoldan chiqadi. Ayni paytda bu jarayonlar bilan birgalikda lug‘atshunoslik sohasida ham rivojlanish yoki aksincha holat yuz berib boradi.

Lug‘atshunoslik lug‘at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so‘zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘ldi. Dastlabki tuzilgan lug‘atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega edi. Lug‘atlarning turli shakllari, ko‘rinishlari esa keyingi davrlarda yuzaga kelgan hodisadir. O‘zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug‘at faqat so‘zlar va ularning ma’nolarini tavsiflab qolmay, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma’lumotlar manbayi hamdir. Shu bilan birga “Devonu lug‘otit turk” dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug‘atlardandir. Mahmud Zamaxshariy ham o‘zining “Asos ul-balog‘a”, “Muqaddimat ul-adab” asarlari bilan amaliy ham nazariy leksikografiyaning rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan katta qiziqish XV asrdan keyingi davrda bir qancha lug‘atlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi: bunga XVI asrda Turkiyada yaratilgan “Abushqa” izohli lug‘ati, Tole Imon Hiraviyning “Badoye ul-lug‘at”, Muhammad Rizo Xoksoning “Muntaxab ul-lug‘ot”, Mirzo Mehdixonning “Sangloh”, Muhammad Yoqub



Chingiyning “Kelurnoma”, Is’hoqxon Ibratning “Lug‘ati sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”) kabi lug‘atlarini ko‘rsatish mumkin. Mirzo Mehdixonning “Maboni al-lug‘at” asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan Zikrillo Umarov asar xususida shunday yozadi: “XVIII asrda fors turkologi Mirzo Mehdixonning “Maboni al-lug‘at” grammatik ocherki Navoiy asarlari asosida yozilgan birinchi eski o‘zbek tili grammatikasidir. Uning tadqiqi o‘zbek tili tarixiy grammatikasini tuzishda, eski o‘zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega [Mirzo Mehdixon 2008, 2].

XIII – XIV asrlarlarda turkiy xalqlar mo‘g‘ullar qaramligida bo‘lishiga qaramay, o‘z intilishlari bilan madaniy, ma’naviy va ilmiy faoliyatidagi obrosini saqlab qolishga harakat qildi va uni to‘laqonli darajada uddalay oldi. Shunday mustamlaka holatiga qaramay, bu davrda ham turkiy tillarga qiziqish yildan-yilga ortib bordi. Turkiy tillarni o‘rganish ehtiyoji tufayli turkiy tillar lug‘ati va grammatikasiga bag‘ishlangan qator asarlar yaratildi. Ushbu davrda yaratilgan nodir durdona asarlardan biri „At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” (Turkiy til haqida noyob tuhfa) kitobi hozirgi kungacha tilshunoslar qo‘liga yetib kelib, bir qator o‘rganishlar olib borilmoqda. Lekin bu asarning muallifi shu kungacha aniqlangani yo‘q. Kuzatishlar natijasida shu aniqlanganki, asar muallifi „At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” kitobini yozishda Mahmud Qoshg‘ariy izidan borib, turkiy qabilalar tillarini, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli xususiyatlarini belgilashga harakat qilgan. Muallif bu asarida asosan qipchoqlar tilini o‘rganishni tadqiqot uchun obyekt qilib olgan. Turkiy tilni Turkman tili bilan qiyoslab, taqqoslagan. Uning aytishicha, „eng ko‘p qo‘llanadigan til qipchoq tilidir... Juda zarur bo‘lgan o‘rindagina Turkman tiliga murojaat qildim”, - deydi.

Abu Hayyon Andalusiy Asiruddin Muhammad Ibn Yusuf Ibn Ali al-G‘arnotiy (1256-1334) — tilshunos olim. 65 ta asar yozgan, ularning 10 dan ko‘prog‘i bizgacha yetib kelgan. „Kitob ulmubayyin fi tarix il-Andalus“ („Andalusiya tarixi haqida bayon qiluvchi kitob“), „Zahr ul-mulk fi taharrurit turk“ („Turk ozodligi chechagi“), „Kitob ul-idrok li lison il-atrok“ („Turkiy tillarni bilish kitobi“), „Kitob ulaf‘ol fi lisonit turk“ („Turk tilidagi fe’llar kitobi“), Mantiq ul-furs li lison il-furs“ („Fors tilini bilmaydiganlar uchun fors tili haqida so‘zlar“), „Nur ul-g‘abash fi lison il-habash“ („Habash tilidagi qorong‘uliklarni yorituvchi nur“), „Ad-durrat ul-muzi’a fi lug‘atit turkiya“ („Turkiy til haqida nur beruvchi marvarid“) kabi asarlari mavjud. U asarlarida turkiy tillarning grammatikasi va leksikasi, o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ko‘pgina turkiy lahja va shevalar haqida ma’lumot bergan. Uning asarlari turkiy tillar tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib hizmat qilib



kelmoqda. Mansur o'g'lining xabar berishicha, Abu Hayyon turkiy tillar bo'yicha to'rtta asar yozgan bo'lib, shundan bittasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitob yuqorida sanab o'tilganlaridan biri „Kitob al idrok li- lison al-atrok” deb nomlanadi. Asar 1312-yil Qohirada yozilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, XIII-XIV asrlarda lug'atshunoslik yetarli darajada taraqqiy qilib, rivojlangan. Bu asrda yaratilgan asarlar keyingi davrlarda yaratilgan kitoblar uchun turtki bo'lgan. O'zbek lug'atchiligi tarixida yaratilgan lug'atlar o'sha davrda yaratilgan buyuk allomalarimizning noyob asarlari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.- T: O'zbekiston, 2002.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tili leksikologiya va leksikografiyasi. Toshkent 2002.
4. www.library.ziynet.uz
5. www.lingvo-online.ru